

IX–XII ASRLARDA MOVAROUNNAHR VA XORAZMNING MADANIY HAYOTI

Axmedov Farxodbek Shavkatovich

*O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining Andijon
akademik litseyi tarix fani o‘qituvchisi*

MAQOLA MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 24.05.2026

Revised: 25.05.2026

Accepted: 26.05.2026

KALIT SO‘ZLAR:

*Movarounnahr,
ma‘naviy meros,
YuNESKO, Osiyo
renessansi, Ma‘mun
akademiyasi,
“Donishmandlar uyi”,
Avitsenna, Al-Xorazmiy.*

Ushbu maqola bugungi kunda eng dolzarb mavzulardan biri – “IX–XII asrlarda Movarounnahr va Xorazmning madaniy hayoti” bo‘yicha tayyorlangan bo‘lib, Buyuk mutafakkirlarimizning muqaddas tuprog‘imizda yashab o‘tgan davri hamda ular yaratgan boy moddiy va ma‘naviy me‘rosi haqida so‘z boradi.

Har bir mamlakat va uning xalqi uzoq va yaqin, o‘ziga xos, betakror tarixiga egadir. Shu jumladan o‘zbeklar va ularning milliy vatani, davlati O‘zbekistonning ham o‘z tarixi bor. O‘zbeklarning milliy tarixi ham g‘oyatda boy, sermazmun, salobatli, jozibalidir. Turon, Turkiston, Movarounnahr deb atalgan bu aziz yurtimiz tarixiy yozma va arxeologik manbalarda Xitoy, Hindiston, Eron, Misr, Rim kabi qadimiy va buyuk mamlakatlar qatori avval-azaldan dunyoga mashhur bo‘lib kelgan.

“Bizning qadimiy va go‘zal diyorimiz nafaqat Sharq, balki jahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri bo‘lganini halqaro jamoatchilik tan olmoqda va e‘tirof etmoqda. Bu tabarruk zaminda ne-ne buyuk zotlar, olimu ulamolar, siyosatchi va sarkardalar yetishib

chiqqani, umumbashariy sivilizatsiya va madaniyatning uzviy qismiga aylanib ketgan dunyoviy va diniy ilmlarning, ayniqsa islom bilan bog'liq bilimlarning tarixan eng yuqori bosqichga ko'tarilishida ona yurtimizda tug'ilib kamolga etgan ulug' allomalarning xizmatlari beqiyos ekani bizga ulkan g'urur va iftihar bag'ishlaydi"¹, - deb yozgan edi birinchi prezidentimiz Islom Karimov.

Vatanimiz tuprog'ida tug'ilib, o'sib voyaga etgan va kamol topgan Beruniy, al-Xorazmiy, Ibn Sino, Forobiy, Ahmad Farg'oniy, Yusuf Xos Hojib, Mahmud Qoshg'ariy, Narshaxiy, Navoiy, Ulug'bek, Nizomiddin Shomiy, Sharafuddin Ali Yazdiy, Xondamir, Bobur, Muhammad Solih va boshqa juda ko'plab dunyoga mashhur alloma va mutafakkirlarning qimmatli asarlari va meroslarini o'rganishga katta e'tibor qaratilmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Islom hamkorlik tashkiloti tashqi ishlar vazirlari kengashi 43-sessiyasining ochilish marosimidagi nutqida shunday deganlar "Buyuk tarixda hech narsa izziz ketmaydi. U xalqlarning qonida, tarixiy xotirasida saqlanadi va amaliy ishlarida namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham u qudratlidir. Tarixiy merosni asrab avaylash, o'rganish va avlodlardan avlodlarga qoldirish davlatimiz siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biridir"¹³¹. Darhaqiqat bugungi kunda qabul qilinayotgan qonunlar va ishlab chiqilayotgan dasturlar tarixiy merosni o'rganish uchun katta yo'llar ochib bermoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev o'z nutqlaridan birida "Al-Xorazmiy, Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Ulug'bek, Al-Farg'oniy, Alisher Navoiy kabi buyuk alloma va mutafakkirlar dunyo ilm fani, falsafa va madaniyat rivojiga ulkan hissa qo'shganlar va ushbu mintaqa dovrug'ini butun jahonga taratdilar. Ular amalga oshirgan tadqiqotlar va ilmiy ishlarining natijalari bir necha asrlar davomida Yevropaning yetakchi universitetlarida ilm-fanning muhim manbai bo'lib xizmat qilgan va bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmasdan kelmoqda."¹ shunday deb ta'kidlab o'tganlar.

Birinchi Prezidentimiz tashabbusi bilan istiqlol yillarida buyuk ajdodlarimizning nomlari tiklandi. Ularning hayoti va bebaho merosini o'rganish, qadamjolarini obod etish va asrab-avaylash borasida ulkan ishlar amalga oshirildi. Birinchi Prezidentimiz ta'kidlaganidek, jamiyat taraqqiyotidagi har qanday o'zgarishlar, yangiliklar, ayniqsa, insoniyat rivojiga katta turtki beradigan jarayonlar, kashfiyotlar o'z-o'zidan yuz bermaydi. Buning uchun avvalo

¹ Islom Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. Toshkent: Ma'naviyat, 2008. 30-bet.

¹³¹ Shavkat Mirziyoyev. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. Toshkent: O'zbekiston, 2017. 29-bet.

¹ O'rta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi...../Xalqaro konfrensiya materiallari. Toshkent. O'zbekiston, 2014. 34-bet

asriy an'analar, tegishli shart-sharoit, tafakkur maktabi, madaniy-ma'naviy muhit mavjud bo'lmog'i kerak.

Ana shunday ezgu maqsad va tafakkur bilan yashagan xalqimiz jahon taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan. Sharq G'arbni o'zaro bog'lagan, buyuk sivilizatsiyalar tutashgan yurtimiz hududida ilm-fan, madaniyat azaldan rivojlangan. Ayniqsa, o'rta asrlarda ona zaminimizdan minglab olimu shoirlar, buyuk mutafakkirlar yetishib chiqqan. Ularning matematika, fizika, kimyo, astronomiya, etnografiya, tibbiyot, tarix, adabiyot, axloq, falsafa kabi ko'plab sohalarga oid asarlari, Samarqand, Buxoro, Xiva, Toshkent, Shahrisabz, Termiz va boshqa shaharlardagi qadimiy obidalar butun bashariyatning ma'naviy mulki hisoblanadi.

O'sha davrdagi eng buyuk mutafakkir olimlardan biri Muhammad Muso Xorazmiydir. Bugun butun dunyo foydalanadigan hisob-kitob amallari, zamonaviy texnologiyalar faoliyati ana shu bobokalonimiz yaratgan qoidalarga asoslanadi.

Butun dunyo Xorazmiyning ilm-fan rivoji yo'lidagi hissasini yuksak qadrlaydi, uni voyaga yetkazgan zaminga alohida ehtirom bilan qaraydi.

Ahmad Farg'oniyning "Astronomiya asoslari" nomli asari o'n ikkinchi asrda lotin va ivrit tillariga tarjima qilingani, keyinchalik Italiya, Germaniya, Fransiya, Gollandiya va AQSh kabi ko'plab mamlakatlarda qayta-qayta chop etilgani uning naqadar ulkan ahamiyatga egaligini ko'rsatadi.

Allomaning Yer sharsimon shaklda ekanligi borasidagi qarashlarini oradan sakkiz yuz yil o'tib amalda isbotlagan mashhur sayyoh Xristofor Kolumb "Yer meridianining bir darajasi miqdori haqidagi al-Farg'oniy hisoblarining to'g'riligiga to'la ishonch hosil qildim", deya dastxat qoldirgan. Oydagi kraterlardan biriga bobokalonimiz nomi berilgan.

YuNESKO qaroriga muvofiq 1998-yilda Ahmad Farg'oniy tavalludining 1200-yilligi xalqaro miqyosda nishonlandi. Bu buyuk ajdodimizning jahon sivilizatsiyasi rivojiga qo'shgan ulkan hissasi, xalqimiz ilmiy salohiyatining yana bir e'tirofi bo'ldi. Davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan Quva va Farg'ona shaharlarida mutafakkir haykallari bunyod etildi, Farg'ona davlat universitetiga Ahmad Farg'oniy nomi berildi.

O'rta asrlarda Sharq ilm-fani rivojida Xorazm Ma'mun akademiyasi alohida o'rin tutgan. Ulkan kutubxona, madrasa, tarjimon va xattotlar maktabi kabi tuzilmalarga ega bo'lgan bu dargohda yuzdan ortiq allomalar, iste'dodli talabalar ilmiy izlanishlar olib borgan. Abu Nasr ibn Iroq, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Ahmad ibn Muhammad Xorazmiy kabi qomusiy olimlarning umumbashariy tafakkur rivojiga qo'shgan hissasi beqiyosdir.

Ibn Sino nomi dunyo fani va madaniyati tarixiga zarhal harflar bilan bitilgan. Doimo yashil bo'lib turuvchi tropik o'simlik "Avitsenna" deb atalgan. Ko'plab mamlakatlarda ko'chalar,

o'quv va tibbiyot muassasalariga uning nomi qo'yilgan, alloma sharafiga medal va mukofotlar ta'sis etilgan.

YuNESKO shafeligida Xorazm Ma'mun akademiyasining 1000-yilligi nishonlangani, uning faoliyati qayta tashkil etilgani mamlakatimizda ajdodlar xotirasiga, ilm-fan rivojiga qaratilayotgan e'tiborning yorqin namunasidir. Hozir bu qadimiy va navqiron ilm maskanida Xorazm tarixi, uning o'ziga xos madaniyati, ekologiyasi, yer va suv resurslarini o'rganish bo'yicha ilmiy izlanishlar davom ettirilmoqda.

Mirzo Ulug'bek yurtimizning bir qator shaharlarida madrasalar qurdirgan, Samarqandda o'ziga xos ilmiy muhit, hozirgi tilda aytganda, akademiya tashkil etgan. U yerda 200 dan ortiq olim faoliyat yuritgan. Falakiyot ilmining nazariy va amaliy masalalari to'la qamrab olingan Ulug'bekning "Zij" asari o'rta asrlardayoq Osiyo va Yevropa mamlakatlarida keng tarqalgan. Yevropalik astronom olimlar uni lotin, fransuz, ingliz tillariga tarjima qilgan, sharhlar bitgan. "Ziji Ulug'bek", "Ziji jadidi Ko'ragoniy" nomlari bilan shuhrat qozongan bu asarda 1018 yulduzning o'rni va holati aniqlab berilgan. Yulduzlarning balandligi va ular orasidagi masofa, quyosh va oyning harakati, ularning tutilish vaqtlari bayon qilingan. Bu hisob-kitoblar zamonaviy texnologiyalar orqali aniqlangan kuzatuv natijalaridan deyarli farq qilmaydi. Masalan, Ulug'bek hisobi bo'yicha bir yil 365 kun 6 soat 10 daqiqa 8 soniyani tashkil etadi. Bugungi kunda bir yil 365 kun 6 soat 9 daqiqa 6 soniyaga teng.

Bu haqda so'z yuritar ekanmiz, beixtiyor 1996-yili Parijda YuNESKOning o'sha paytdagi Bosh direktori Federiko Mayor janoblari bilan bo'lgan bir suhbat yodimga tushadi, – deb yozadi birinchi Prezidentimiz "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida. – O'shanda janob Mayor Ulug'bekning ilmiy merosini yuksak baholab, uning yulduzlar harakatiga oid hisob-kitoblari bugungi kunda komputer yordamida tekshirib ko'rilganda atigi bir necha daqiqaga farq qilishi aniqlandi, degan gapni aytib qoldi. Shunda men unga qarab, yo'q janob Federiko Mayor, Ulug'bek xato qilgan bo'lishi mumkin emas, balki komputerlar xato qilgan bo'lishi mumkin, degan edim".

Butun dunyoda buyuk ajdodlarimizning so'nmas dahosiga hurmat-ehtirom, ularning boy ilmiy merosini o'rganishga qiziqish hamisha yuqori bo'lgan. Buning tasdig'ini turli mamlakatlarda ularning hayoti va faoliyati haqida ilmiy va badiiy asarlar yaratilgani, ulug' ajdodlarimiz xotirasiga yodgorliklar barpo etilganida ham ko'rish mumkin. Belgiya va Latviyada Ibn Sinoga, Latviyada Mirzo Ulug'bekka, Yaponiya, Rossiya va Ozarbayjonda Alisher Navoiyga, Misrda Ahmad Farg'oniya o'rnatilgan haykallar xalqimiz tarixiga chuqur hurmat ifodasidir.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2016-yil oktabr oyida poytaxtimizda o'tkazilgan Islom hamkorlik tashkiloti Tashqi ishlar vazirlari kengashining 43-sessiyasi ochilish marosimida yurtimizdan yetishib chiqqan islom olami mutafakkirlari asarlarini, ularning butunjahon sivilizatsiyasi rivojiga qo'shgan bebaho hissasini chuqur o'rganish, dunyoning barcha xalqlariga islom dinining haqiqiy mazmun-mohiyatini yetkazish uchun Samarqanddagi Imom Buxoriy yodgorlik majmui qoshida xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish taklifini bildirgan edi. Bu tashabbus xalqaro hamjamiyat tomonidan keng qo'llab-quvvatlandi. Davlatimiz rahbarining shu yil 21-mayda Saudiya Arabistoniga tashrifi chog'ida O'zbekiston Respublikasi va Islom taraqqiyot banki o'rtasida Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish to'g'risida Anglashuv memorandumini imzolandi. Ayni paytda ushbu majmua qurilishi qizg'in davom etmoqda. Shuningdek, bugungi kunda poytaxtimizda O'zbekistondagi Islom madaniyati markazini tashkil etish bo'yicha keng ko'lamli ishlar boshlab yuborildi. Prezidentimizning 2017-yil 24-maydagi "Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Bu sa'y-harakatlar muqaddas zaminimizdan yetishib chiqqan buyuk mutafakkirlar hayoti va ilmiy-ijodiy faoliyatini chuqur tadqiq etish, xalqaro miqyosda dinlararo va sivilizatsiyalararo muloqotni yo'lga qo'yish, bugungi murakkab davrda islom dinining insonparvarlik mohiyatini ochib berish hamda yosh avlodni yuksak ma'naviyatli insonlar etib tarbiyalashga xizmat qilishi shubhasiz. "Buyuk allomalarimiz merosi – bebaho xazina" mavzusidagi anjumanning ochilish marosimida Jahon sayyohlik tashkiloti bosh kotibi Taleb Rifai, YuNESKOning mamlakatimizdagi vakolatxonasi rahbari Badarch Dendev, AYSESKO bosh direktori Abdulaziz Usmon at-Tuvayjri, MDH Ijroiya qo'mitasi raisi – ijrochi kotibi Sergey Lebedev, IRSIKA bosh direktori Xalit Eren Markaziy osiyolik allomalarning dunyo tamaddunida tutgan o'rnini, ilm-fan va madaniyat rivojiga qo'shgan hissasi haqida so'z yuritdi. Ayniqsa, islom madaniyati rivojida Imom Buxoriy, Imom Termiziy kabi muhaddislarning beqiyos xizmatlari qayd etilib, ularning merosini o'rganish va keng targ'ib qilish bugungi globalashuv davrida nihoyatda dolzarb ahamiyat kasb etishi ta'kidlandi. Mamlakatimizda Prezidentimiz rahnamoligida ushbu yo'nalishda amalga oshirilayotgan ishlar yuksak e'tirof etilib, bu dunyo xalqlarini birlashtirish, islom niqobi ostida harakat qilayotgan turli ekstremistik oqimlarga qarshi kurashishda muhim omil bo'lishi qayd etildi. – O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish bo'yicha tashabbusi bizning tashkilotimiz tomonidan to'la qo'llab-quvvatlandi, – deydi Islom hamkorlik tashkiloti departamenti direktori Maxla at-Talebna xonim. – Bu, avvalo, Imom Buxoriy hazratlarining

eng sara va ishonchli hadislarni to'plab, muqaddas islom dini rivojiga ulkan hissa qo'shgani bilan bog'liq. Ushbu merosni o'rganish va yosh avlodga o'rgatish barcha zamonlarda ham dolzarb vazifa bo'lib qoladi. Yana bir muhim jihat, dunyodagi bugungi notinch vaziyat, turli mintaqalarda yuz berayotgan terrorchilik harakatlarining islom dini bilan bog'lanayotganidir. Vaholanki, islom dinining asosini ma'rifat va ma'naviyat tashkil etadi. Buni bugungi va kelajak avlodlarga Imom Buxoriy singari buyuk muhaddislar ilmiy merosi orqali yetkazish eng to'g'ri yo'ldir. Xalqaro konferensiyaning yalpi majlisida Markaziy Osiyo renessansining o'ziga xos xususiyatlari, bu davrda faoliyat ko'rsatgan allomalar va ularning merosini o'rganish borasida olib borilayotgan ilmiy ishlar, ushbu yo'nalishdagi xalqaro hamkorlik yuzasidan ma'ruzalar tinglandi. – Markaziy Osiyo renessansida Buyuk Ipak yo'li muhim o'rin tutgan, – deydi Xitoy xalqaro tinchlik fondi raisi Li Ruo Hong. – Bu yo'l shunchaki tovar olib o'tish yoki xizmat ko'rsatish uchun vosita bo'lib qolmay, turli xalqlarning madaniyatini targ'ib etish, ilm-fanni rivojlantirish, Sharq va G'arbni o'zaro bog'lashga xizmat qilgan. Samarqand esa Buyuk ipak yo'lining chorrahasi sifatida ilm-ma'rifat, madaniyat markaziga aylangan. Shu nuqtai nazardan bugungi anjumanning bu qadimiy shaharda o'tkazilishi bejiz emas. Ayni kunlarda bu yerda davom etayotgan "Sharq taronalari" xalqaro musiqa festivali ham dunyo xalqlari milliy san'ati va madaniyatini rivojlantirish, targ'ib etishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

Markaziy Osiyoda IX-XII va XIV-XV asrlarda ro'y bergan ilmiy-madaniy uyg'onish davrining turli jihatlari, Muhammad Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Mahmud Zamaxshariy, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy va boshqa mutafakkirlarning ilm-fan rivojiga qo'shgan hissasi, Imom Buxoriy, Burhoniddin Marg'inoniy, Imom Termiziy, Abu Mansur Moturidiy kabi ulamolarning ma'naviy merosi tahliliga alohida e'tibor qaratildi. Kunning ikkinchi yarmida konferensiya "Markaziy Osiyo Renessansi davrida aniq va tabiiy fanlar rivoji", "Markaziy Osiyo – islom ilm-fanining ilg'or g'oyalari beshigi", "Markaziy Osiyo Renessansi davrida gumanitar fanlar", "Madaniyat va me'morchilik Markaziy Osiyodagi madaniy yuksalishning yorqin aksi sifatida" sho'balariga bo'lingan holda davom etdi. – Biz o'tmishdagi tibbiyot yoki bugungi zamon meditsinasi haqida gapirganda, birinchi navbatda, Abu Ali ibn Sino qarashlariga tayanamiz, – deydi Fransiya Avitsenna assotsiatsiyasi prezidenti Mark Bonnel. – Chunki alloma asarlarida qayd etilgan fikrlar, kasalliklar alomati va ularni davolash yo'llari bugun ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Aksincha, ayni paytda zamonaviy tibbiyotda taklif etilayotgan ko'plab davolash usullari va muolajalar Ibn Sinoning tibbiyotga oid kitoblarida sodda tilda bayon etilgan. Shuning uchun

hali buyuk tabib ilmiy merosini o'rganish borasida katta va keng ko'lamli tadqiqotlar olib borishimiz lozim.

IX-XII asrlar O'rta Osiyo xalqlari tarixida moddiy va ma'naviy hayotning rivojlanishida oldingi davrlarga nisbatan keskin yuksalish yillari bo'ldi. Ma'mun akademiyasida Movaraunnahrlik olimlar. Xorun ar-Rashid tashabbusi bilan Bag'dodda ilmiy Markaz-Akademiya («Bayt ul-Xikma»)-tashkil etilib, unga barcha musulmon o'lkalari, jumladan O'rta Osiyodan ham olim va fozillar to'plandi. Bu markazda Movaraunnahr va Xurosondan kelgan Muso Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Marvoziy, Marvarudiy, Javhariy kabi olimlar Bag'dod akademiyasini jahonga mashhur bo'lishida katta hissa qo'shdilar. Movaraunnahrda arab halifaligini hukmronligini o'rnatilishi hamda islom dinining keng yoyilishining ijobiy tomonlaridan biri shuki, Bag'doddagi ilmiy akademiyadan o'rnak olib Xorazmda ham X asrda Ma'mun akademiyasi vujudga keldi va uning a'zolari bo'lmish o'z davrining olimu-donishmandlari o'z ijodlari bilan Movaraunnahrni donishi olamga yoydilar. Shuningdek o'lkamiz hududidan islom dunyosining eng mo'tabar shaxslari, hadisshunoslari etishib chiqdilar, ularning nomi Hozirgi kungacha ham dunyoviy, ham tasavvuf ilmining yuqori pog'onalarida turibdi.

Xorazmda Ma'mun akademiyasi. Ma'lumki, uzoq o'tmishga ega bo'lgan O'rta Osiyo xalqlari taraqqiyoti tarixi o'z boshidan turli voqealarni, yuksalish va orqaga ketish davrlarini boshdan kechirdi. Shubhasiz, bu davrlarning barchasi tarixda o'zining ma'lum izini qoldirdi. Xususan ilm-fan madaniyatimiz taraqqiyotida IX—XII asrlar davrining o'rni beqiyosdir. Shuni alohida ta'kidlash joizki, Ma'mun ibn Muhammad X asr oxirlarida janubiy va shimoliy qismlarga bo'lingan Xorazmni yagona bir markazga birlashtirdi. Ma'mun ayniqsa poytaxt Gurganchni Sharqning eng yirik ilmiy-madaniy markazlaridan biriga aylantirdi. Ma'mun Gurganchda «Baytul xikma» (Donishmandlar uyini) tashkil qildi. U Ma'mun akademiyasi deb ham ataldi. Bu maskanda ulug' mutafakkirlar Al-Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino, Ibn al-Hammor, Abu Saxl Masixiy, Ibn Iroq, Ahmad Farg'oniyilar ijod qildilar. Shuningdek ular orasida Sharqning ko'pgina mamlakatlaridan kelgan ulug' allomalar ham bor edi.

Xivada Ma'mun akademiyasi, Bag'dodda «Donishmandlik uyi», Samarqandda Ulug'bek maktabining paydo bo'lishi o'sha davrda ilm fan va madaniyatni rivojlantirishning mamlakatlar va xalqlar shuningdek sivilizatsiyalar o'rtasida ilmiy fikr almashuv va muloqot muloqot yo'lga qo'yilishini ta'minlagan muhim tarkibiy qism bo'ldi.

IX – XII va XIV – XV asrlarda Markaziy Osiyodagi ilmiy, madaniy va ma'naviy yuksalish davrlari, ushbu davrlarda mintaqada yashab ijod etgan alloma va mutafakkirlarning yutuqlari bashariyat sivilizatsiyasi rivojiga beqiyos hissa qo'shgani, bu yutuqlar jahon ilm fan

jamoatchiligi tomonidan Yevropada Uygʻonish davrining shakllanishi va dunyoning boshqa mintaqalari rivojiga ijobiy taʼsir koʻrsatgan.

Mamlakatimiz taʼlim sohasida muvaffaqiyatli amalga oshirilayotgan milliy dastur, Sharq Uygʻonish davrining buyuk alloma va mutafakkirlari asos solgan maʼrifat anʼanalari izchil rivojlantirilmoqda.

Oʻrta asrlar Sharq allomalari qoʻlga kiritgan ilmiy yutuqlar va buyuk kashfiyotlar dunyoning ulkan mintaqasida ilmiy madaniy yuksalishga kuchli turtki berdi. Ularning ilm fan va dunyo sivilizatsiyasi taraqqiyotiga qoʻshgan beqiyos hissasi dunyo jamoatchiligi tomonidan Yevropada va dunyoning boshqa mintaqalarida Uygʻonish jarayonlariga ijobiy taʼsir koʻrsatgan Sharq uygʻonish davri sifatida eʼtirof etildi.

Yurtimiz mutafakkirlarining ilm-fan sohasiga baxshida etgan hayoti, ular erishgan va bugungi kunda butun maʼrifatli insoniyatni hayratga solib kelayotgan yutuqlari – bu hech shubhasiz, xaqiqiy maʼnaviy jasorat namunasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Islom Karimov. “Yuksak maʼnaviyat – yengilmas kuch”. T.: “Maʼnaviyat”, 2008.
2. Karimov I.A. Ona yurtimiz baxt-u istiqboli va buyuk kelajagi yoʻlida xizmat qilish – eng oliy saodatdir. – T.: Oʻzbekiston, 2015.
3. Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “Oʻzbekiston” 2017.
4. Mirziyoyev Sh. Tanqidiy tahlil, qatʼiy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir faoliyatining kundalik qoidasi boʻlishi kerak. – T.: Oʻzbekiston, 2017
5. Shavkat Mirziyoyev. Milliy taraqqiyot yoʻlimizni qatʼiyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga koʻtaramiz. Toshkent: Oʻzbekiston, 2017.
6. Oʻzbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T: “Oʻzbekiston”, 2017.
7. Oʻzbekiston tarixining muhim sanalari.”OʻZBEKISTON” NMIU, 2012-yil.
8. Oʻzbekistonda davlat va din munosabatlari: Diniy tashkilotlar, oqimlar, mafkuraviy kurashning dolzarb yoʻnalishlari. – “Toshkent islom universiteti” nashriyot –matbaa birlashmasi, 2014-yil.
9. E. Ochilov. Barhayot siymolar. Toshkent: Oʻzbekiston, 2012. 15-bet
10. Oʻrta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizatsiya rivojidadagi roli va ahamiyati. Xalqaro konfrensiya materiallari. Toshkent. Oʻzbekiston, 2014.

11. Z. Islomov, D. Rahmonov, J. Najmiddinov "Dunyo dinlari tarixi"; "Yangiyo'l Poligraf Servis" nashriyoti, Toshkent.: 2017.

12. A. Muhammadjonov O'zbekiston tarixi: 7-sinf uchun darslik. T.: 2017

13. A. Azizxo'jayev va boshq. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 12-jild; "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" nashriyoti, T.: 2006

